OTA-ONALAR PEDAGOGIK MADANIYATI MEZONLARI VA IJTIMOIY-PEDAGOGIK KO‘RSATKICHLARI

Egamberdiyev Umidbek Xo‘jayevich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya
Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta’minlash, jumladan, 11-sinf bitiruvchilari bilan olib boriladigan ishlar natijaviyligini oshirishda ota-onalarning pedagogik madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ota-onalar pedagogik madaniyatining mezonlari va ko‘rsatkichlari ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: *maktab, oila, pedagogik madaniyat, ijtimoiy pedagogika, bitiruvchi, jamiyat, oliy ta’lim, kasb-hunar.*

KIRISH

Ta’lim islohotlari Yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining muhim strategik yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. Jumladan, “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish” va “Umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida asosiy maqsadlar sifatida belgilangan [1].

Yurtimizdagi zamonaviy ta’lim tizimida maktabning boshqa ijtimoiy institutlar, jumladan, oila bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi va doimiy e’tiborga molik masalalardan biridir. Ota-onalarning pedagogik madaniyati umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli va natijaviy tashkil etish, jumladan, 11-sinf bitiruvchilarini kasb-hunarga va oliy ta’lim muassasalariga yo‘naltirish va tayyorlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda ota-onalarning pedagogik madaniyati tushunchasiga turlicha yondashuvlar va talqinlar mavjud. Pedagogik madaniyat mavzusida tizimli tadqiqotlar olib borgan pedagogika fanlari doktori, professor V.L.Beninga ko‘ra, pedagogik madaniyat “pedagogik jarayonning integral xarakteristikasi bo‘lib, to‘plangan ijtimoiy tajribani uzatishda odamlarning bevosita faoliyati va bu faoliyat natijalarining bilim, ko‘nikma, ko‘nikma va avloddan avlodga o‘tishning o‘ziga xos institutlari shaklida mustahkamlangan birligini o‘z ichiga oladi” hamda “Bir tomondan, pedagogik madaniyat alohida quyi tizim, madaniyatning alohida turidir. Boshqa tomondan, u madaniyatning har bir turida element sifatida mavjud bo‘lib, uni ijtimoiy vorisiylik tizimi bilan bog‘laydi [2;76]. Tom ma’noda, madaniyat pedagogika bilan uzviy bog‘liq va pedagogika madaniyatning bir qismidir [3].

Akademik X. Ibraimov va taniqli pedagog olimlar M.Quronov, J. Fozilov va F. Zaripovlar muallifligidagi “Ota-ona - murabbiy” mavzusidagi uslubiy qo‘llanma ota-onalarning zamonaviy portretini taqdim etib, ulardan farzand tarbiyasini bugungi kun

ruhida olib borish uchun talab etiladigan madaniyat, bilim va fazilatlarni o‘zida yaxlit va ixcham ifoda etgan, deyish mumkin [4].

Ota-onalarning pedagogik madaniyati mazmuni yoki mezonlari borasida zamonaviy tadqiqotlarga tayangan holda, quyidagilarni ta’kidlash mumkin.

Pedagogik madaniyatning kognitiv komponenti ta’limni to‘liq amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan psixologik, pedagogik, fiziologik, gigiyenik va huquqiy bilimlarning yig‘indisini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyatning amaliy komponenti ota-onalarning farzandi bilan ta’lim sohasidagi turli xil usullar, texnikalar va shakllarni ongli ravishda egallashi, oilada bolalarning hayoti va faoliyatini tashkil qilish, oilaviy ish va bo‘sh vaqtini tashkil qilish qobiliyatini; va bolaning qobiliyatlari, qiziqishlari va moyilliklarini baholash qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Kommunikativ komponent, birinchi navbatda, ota-onalarning oilada qulay psixologik muhit yaratish qobiliyatini, bolalarni va boshqa oila a’zolarini tushunish qobiliyatini, turli fikrlarga nisbatan bag‘rikenglikni, o‘zining psixofizik holati va fikrlarini ifoda eta olish qobiliyatini, shuningdek, nizolarning oldini olish va hal qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Refleksiv komponenti ota-onalarning o‘z harakatlari va holatlarini tahlil qilish, qo‘llaniladigan usullarning samaradorligini, bolalar bilan o‘zaro aloqa qilish texnikasini, muvaffaqiyat va muvaffaqiyasizliklarning sabablarini, xatolarni va oilaviy tarbiya jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni va o‘zlarini farzandining ko‘zi bilan ko‘rish qobiliyatini nazarda tutadi.

Ota-onalar pedagogik madaniyatining emotsional komponenti qiyin vaziyatlarda o‘zini nazorat qilish qobiliyatini, bolaning holatini nozik xulq-atvor naqshlaridan tushunish qobiliyatini, bolaning muammolarini aniqlash va ularni hal qilishga yordam berish qobiliyatini, shuningdek, ota-onalarning hamdardlik, rahm-shafqat va hamdardlik qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotimiz davomida umumta’lim maktablari 11-sinf bitiruvchilari ota-onalari pedagogik madaniyatining mezonlari ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim degan xulosaga kelindi:

1. Ijtimoiy-moslashuv mezonlari. Ota-onalarning o‘z farzandlarini maktabni tamomlash davrida katta hayotga yanada faol tayyorlash, mustaqillikka o‘rgatish va farzandining mustaqillikka bo‘lgan to‘g‘ri qarorlari va xatti-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash, o‘z yutuqlaridan farxlanish, intilish, ichki motivatsiya hamda turli hayoti vaziyatlar, jumladan, stress va muvaffaqiyatsizliklar uchun sabr va chidamlilikni rivojlantirish qobiliyatlaridan iborat bo‘ladi.

2.Ijtimoiy-kommunikativ mezonlar. Oilaning farzand ta’limi va tarbiyasi, shuningdek, mustaqil katta hayoti uchun tashqi ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro ta’sirining mohiyatini aks ettiradi. Ota-onalar farzandlarida maktab mutaxassislari bilan birgalikda jamiyat hayotining turli sohalarida (oliy ta’lim, kasb-hunar ta’limi, mehnat jamoasi, mehnat bozori va boshqalar) muhitida erkin muloqotga kirishish va ijobiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishning dastlabki ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim bo‘ladi.

3. Kasb va mehnatga yo‘naltirish mezonlari. Bitiruvchining kasbiy o‘zini o‘zi belgilash va tanlov jarayonida ota-onalarning faol ishtiroki, shuningdek, ota-onalar kutganlarining bolaning real imkoniyatlari, moyilliklari va qiziqishlariga mos kelishi, mehnat bozorini bilish, zamonaviy kasblardan xabardorlik, mutaxassisliklarga talabni bilish va eskirgan stereotiplarni ustun qo‘ymaslik, bitiruvchi kelajak hayotini rejalashtirishning moslashuvchanligi va farzandi bilan birga muqobi rejalarni ishlab chiqish qobiliyatlari.

4. Qadriyat (aksiologik) mezonlari. Oilada bitiruvchi kelajak hayoti uchun mas’uliyat darajasi, o‘z farzandida fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish, bitiruvchining hayotiy va ijtimoiy huquqlarini hurmat qilish, unda jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va mustahkam mavqega ega bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni shakllantirish, ma’naviy kamoloti uchun zarur sharoitlarni yaratish.

5. Ijtimoiy – psixologik qo‘llab-quvvatlash mezonlari. Farzandining psixologik xususiyatlarini bilish, uni kelajak hayot uchun ruhlantirish, motivatsiyalash, maktabni bitirish, oliy ta’limga tayyorgarlik va imtixonlar jarayonida ruhan qo‘llab-quvvatlash, turli muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish va dalda berish kabilar shular jumlasidandir.

Xulosa sifatida aytganda, bugungi kunda davlat va jamiyat tomonidan umumiy o‘rta ta’lim maktablariga nafaqat umumta’lim dasturlari asosida bilim berish, balki, bitiruvchilarni jamiyatga faol ijtimoiy moslashuvi, ta’lim va kasb-hunar orqali uning faol a’zolariga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, inson kapitalini samarali shakllantirish vazifalari qo‘yilmoqda.

Bitiruvchilar ota-onalarining to‘g‘ri shakllangan pedagogik madaniyati istiqbolda ishsizlik, boqimandalik, kambag‘allik, mehnat migratsiyasi, erta turmush, erta ajrim va huquqbuzarlik kabi qator ijtimoiy muammolarning oldini olish uchun ham zarurdir. Maktab doirasida ota-onalarning pedagogik madaniyatini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan sifatli ishlar, butun jamiyat miqyosida qator muammolarni barvaqt xal etish imkonini beradi.

Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonida ularning faolligini oshirish, oilaning pedagogik imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish, shuningdek, bitiruvchilarni oliy ta’lim, kasb-hunar va mehnat bozoriga to‘g‘ri va maqsadga muvofiq yo‘naltirish va tayyorlashning muhim omillaridan biridir.

Xalqimiz mentaliteti va turmush tarzida ota-onaning farzand tanloviga ta’siri kuchliligini doimo hisobga olish zarur. Ota-onalarning farzand taqdiriga befarq emasligi, uning ta’lim-tarbiyasi uchun g‘amxo‘rlik qilishi va kelajagi uchun ma’naviy-moddiy zamin yaratishdagi faolligi kabi qator xususiyatlari bitiruvchilarni maktab ta’limidan keyingi ta’lim olishi va kasb-hunar egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda, ota-onalar ta’siri va tanlovining farzandning qobiliyatlari, maqsadlari va tanlovi bilan hamisha ham mos kelmasligi, maktabning bu boradagi faoliyatiga o‘zining salbiy ta’sirini ham ko‘rsatishi real holatdir. Shu boisdan ham maktab tomonidan ota-onalar pedagogik madaniyatining o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va maktabdagi pedagogik-psixologik jarayonlar bosqichlariga mos shakllantirilishi zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2026-yildagi PF-21-son. Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. https://lex.uz/ru/docs/8050769

2. Бенин В.Л. Педагогическая культурология. Образование и наука. 2011. № 2 (81).

3. Бенин В.Л. Педагогическая культура: филосософско-социологический анализ. Уфа: БГПИ, 1997. 133 с.

4. Ibraimov X., Quronov M., Fozilov J., Zaripov F. Ota-ona - murabbiy//. Ota-onalar uchun uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: Sarvar Print nashriyoti, 2024. 248 bet.